

TONG Yulduzi

№22 (66355)
2002 yil
27 may,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.



XAYR

MAKTABI

Kuni kecha Respublikamizdagi barcha maktablarda so'nggi qo'ng'iroq ovozi yangradi. Ustozu shogirdlarning dillarida ajib entikish, ko'zlarida quvonch yoshlari. Ayniqsa, bitiruvchi sinf o'quvchilarining xolatini, qalbidagi hayajonni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. O'z uyidek bo'lib qolgan qadrdon maktabi, ona kabi mehribon ustozlari bilan xayrlashishning o'zi bo'ladimi, axir?!

Akmal Ikromov tumanidagi A.Yassaviy nomli 203- maktab bitiruvchilaridan ayrimlarini suhbatga tortdik:

Nigora TO'XTABEKOVA:

-Avvallari bizdan katta aka-opalarimiz so'nggi qo'ng'iroq kuni o'qituvchilarini quchoqlab yig'lasalar hayron bo'lardim. Bugun esa maktabni tark etish qanchalar og'ir ekanligini o'zim ham his qilib turibman. Ilgari tezroq maktabni bitirib, katta qiz bo'lib qolgim kelardi. Ammo bugun maktabdan hecham ketgim kelmayapti...

Respublikadagi barcha bitiruvchilarga mustaqil hayotda omad va baxt tilayman.

Farhod JAMOLOV:

- Bugun hamma bitiruvchilar qatori mening qalbim ham hayajonga to'la. Tanaffuslarda xona changitib to'polon qilishlarimiz ortda qoldi. Lekin bu kunlar hech bir o'quvchining yodidan chiqmasa kerak, deb o'ylayman. Biz mustaqil yurtning erkin farzandlarimiz. Oldimizda juda katta, ma'suliyatli vazifalar turibdi. Biz ana shu vazifani mardlarcha ado etishimiz darkor. Har birimiz Vatan uchun sodiq farzand bo'laylik.

*Shaxlo MUTALOVA
suhbatlashdi.*

1 iyun - Xalqaro Bolalarni himoya qilish kuni

Barot YARASH


BOLA DUNYONI TEBRATAR



O'qiy desa zo'r zehni bor,
Elu yurtiga mehri bor.
Odamlarni lol qoldirar,
Yuragida nur, sehri bor -
Bola dunyoni tebratar.

Yurish, turish hulqi a'lo,
So'zlarida ming bir ma'no.
Elni anglar, dilni anglar,
Zehni o'tkir, donish, dono -
Bola dunyoni tebratar.

Ilmu odob - olam degan,
Ham otayu onam degan.
Yurtda o'sgan tikonni ham
Gulim degan, lolam degan -
Bola dunyoni tebratar.



Maftuna der: -Qarang oyijon,
Qo'g'irchog'im ko'rki bir jahon.

Qo'g'irchoq der: -Jajji qizaloq,
Chiroyingdan bergin ozroq.



E'tibor



Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 2-son davolash internatida asosan sil kasali bilan og'rigan, yoki sil kasali bilan kasallangan oila farzandlari davolanadi.

Keling, yaxshisi internatdagi shart-sharoitlar haqida shu internatning 7- «A» sinf o'quvchisi Gulixon Sattorova dan eshitaylik:

- Kasalimiz yuqumli bo'lsa- da, ammo ustozlarimizni qo'rqitilmaydi. Ularning shirin so'zlari, mehrlilik ko'zlari oldida kasal ham kuchsizlanib qolsa kerak- da.

Ularning aksariyati ko'p yillardan beri biz kabi bolalarni ham tarbiyalab ham davolab keladilar. Ustozimiz - Vohid aka Tolibov o'ttiz besh yildan buyon shu dargohda xizmat qiladilar. Shifokor- Ibodulla aka Rajabov esa o'ttiz

uyushtiramiz. Sportga oid tadbirlarimiz yanada qiziqarli o'tadi.

Xomiy tashkilotlar ham bayramlarni bizsiz o'tkazishmaydi.

Buning uchun ustozlarimizga, bizga mehr bilan qaraydigan, tezroq

tuzalib ketishimizni xohlaydigan insonlarga rahmatlar aytgimiz keladi...

Bunday iliq gaplarni internatda davolanib, ta'lim olayotgan har bir boladan eshitishimiz mumkin. Ular umid bilan yashaydilar, tezroq

MEHR ILDIZ OTGAN JOY


yildan beri, Dilora opa Rahmatova yigirma besh yildan buyon internatda ishlab kelishadi. Ular juda mehribonlar.

Bunday jonkuyar, shirinso'z insonlar bizning internatimizda juda ko'plab topiladi.


Internatimiz direktori Fazliddin aka Sattorov biz kabi o'ksik qalblarni doimo xursand bo'lib yurishimiz uchun tinimsiz ishlaydilar. Yetarli sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar.

Internatimiz xuddi o'z uyimizdek bo'lib ketgan. Gohida kasal bo'lganimizni ham unutib yuboramiz.

Sog'lom o'quvchilar kabi biz ham ko'plab tadbirlar



Ustozimiz Vohid aka Tolibov doimo bolalar bilan.



Sport bizga hamisha hamroh.

tuzalishni xohlaydilar. Mehrlilik insonlar ardog'ida kasallikni yengishga harakat qiladilar.

Zero, mehr har narsadan ustundir. Ustozlarining samimiy ko'magi, e'tibori ularga kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Feruza
SOYIBJON qizi.



Ustoz haqida so'z

o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelyaptilar. Bir necha yil hozirgi 49-maktab (sobiq 1 - maktab)da direktor lavozimida faoliyat ko'rsatganlar. Fidoyi mehnatlari evaziga 1989 yilda «Metodist - o'qituvchi», keyinchalik «Oliy toifali o'qituvchi» unvoniga sazovor bo'ldilar. O'tgan 2001 yil ham Orzibibi opa uchun omadli bo'ldi. Mustaqillikning 10 yilligi munosabati bilan «Mehnat faxriysi» medali, oktyabr oyida esa «Xalq maorifi a'lochisi» unvonini olish baxtiga muyassar bo'ldilar. Biz shogirdlari ulardek fidoyi inson bo'lishga intilamiz. Shunday zahmatkash ustoz qo'lida tahsil olayotganimizdan faxrlanamiz.

Ruxsora SHODMONOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 49 - maktabning 10 - «V» sinf o'quvchisi.

FIDOYI INSON

Xalqimizda «Ustoz otangday ulug'» degan naql bor. Darhaqiqat, ustoz - ikkinchi ona, ustoz - fidoyi, inson - ...!

Xalq maorifi a'lochisi Orzibibi Boltayeva ana shunday mehdaryo ustozlarimizdan biri. Mana o'ttiz yildirki, opa tumanimizdagi 49 - o'rta umumiy ta'lim maktabida

SIZ O'ZINGIZ QALBIM QUYOSHI

Ona! Dunyoda bu so'zdan ham go'zalroq so'z bormi? Har bir inson ona deganda ko'z o'ngida uni dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq taragan, qoshida parvona bo'lib, tunlarni bedor o'tkazgan, bor mehrini berib, uni o'stirib voyaga yetkazgan buyuk zot gavdalanadi.

Oilalarimiz, qolaversa, jamiyatimizni birlashtirib, unga fayzu barakot kiritadigan, xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nurlari bilan to'ldiradigan zotlar ham munis onajonlarimizdir.

Vatanga eng munosib ta'rif izlaganlarida, bejiz uni ona siymosiga qiyoslamaganlar.

Haqiqatdan ham, dunyoda «muqaddas» degan so'zga eng munosib zot - Onadir.

Ona - bilimdon, nozik ta'b, zukko suhbatdosh. U farzandlarini kipriklari bilan siypalab o'stiradi. Umidlari bir olam bo'lib. Biz nafaqat o'z onamiz, balki barcha onalarni e'zozlashimiz kerak. Ana shunda onalarimiz qalbida quyosh balqiydi, ularning minnatdor ko'zlari qalblarimizni yoritadi. Shundagina onalarimiz biz bilan faxrlansalar arziydi. Ayniqsa, bu yilgi «Qariyalarni qadrlash yili»mizda ularni yanada ko'proq qadrlaylik, boshimizga ko'taraylik. So'zda, amalda. Bir kun kelib bu izzat, bu ikrom o'zimizga beshak qaytajak.

Marhabo MUHAMMADIY,
Samarqand viloyati, Samarqand shahar, Siyob tumanidagi 5 - maktab o'quvchisi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

4. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihattan bo'lib olishga urinishlar

Hozirgi davrda xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihattan tobe etish va pirovard natijada butkul qaram qilib olishga qaratilgan intilishlar kuchayib bormoqda. Bu — katta-katta hududlarni, ayniqsa, boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan mintaqalarga o'z ta'sirini o'tkazishning eng qulay usulidir. Bu — zamonaviy qurol-aslaha kuchi bilan hal etib bo'lmaydigan muammoni sirdan qaraganda o'ta beziyon bo'lib tuyuladigan mafkuraviy usullar orqali yechish yo'lidir.


Bugungi kunda quyidagi ijtimoiy-tarixiy omillar asosida dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralar mavjud:

- buyuk davlatchilik gegemonizmi asosida;
- diniy mansublik asosida;
- etnik birlik asosida;
- sobiq ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlik asosida va hokazo.

Jahonni mafkuraviy jihattan bo'lib olish uchun tinimsiz harakat olib borilayotgan bunday paytda faqat kuchli milliy mafkuragina jamiyatni ana shu tazyiqlardan muhofaza qila oladi.

Bugungi kun voqeligidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri ana shundan iborat.

(Davomi bor).



XATLAR TEGIRMONI

aynan mahallaga ma'lum. musiqali chiqishlar, quvnoq
«Maktab, oila va mahalla» estafetalar, quvnoq
konsepsiyasi shuning uchun choyxona o'rin oldi.
ham ishlab chiqarilgan. Quvnoq estafetada 15 ga
Shunga amal yaqin to'garak a'zolari

buyurdilar. Ularni mahalla vakillari shirinliklari muzqaymoqlar bilan mehmon qildilar.

Biz shu kabi tadbirlar o'tkazib turilishidan mamnunmiz. Bu kabi hamkorliklar barcha



MAHALLADA BAYRAM

«Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona» degan naql bor xalqimizda. Mahalla ham bir katta oiladek gap. Kim nima ish bilan band, kimning farzandi yaxshi tarbiya ko'rganu, kimniki ko'cha bezorisi ekanligi mahallada hammaga oynadek ravshan bo'ladi. Bolalarning ko'zga ko'rinmas kamchiliklari ham

qilgan holda ishtirok etdilar. Tadbir
S h a h a r so'ngida ishtirokchilar
Qo'shimcha ta'lim mahallada ajratilgan homiylik
Majmuasi Amir Temur hisobidan, quvnoq
mahallasi bilan hamkorlikda choyxonaga tashrif

mahallalarda amalga oshirilishiga ishonamiz.

Nargiza KARIMOVA,
«Yosh jurnalistlar» klubi a'zosi.

«Mahallada bayram - hamma joyda bayram» tadbirini o'tkazdi. Tadbir ajoyib tarzda bo'lib o'tdi. Mahalla faollari o'z xududlarida istiqomat qiluvchi to'garak a'zolari bilan tanishdilar, ular bilan birgalikda o'yin-kulgilar qildilar. Dasturdan ajoyib

BILAG'ONBOLALAR DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi, yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...

Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar yerni esa bilimlilar bezar.



O'N OLTIDA SO'LGAN GUL...

16 aprel biz uchun nihoyatda a'lamli kun bo'ldi. Shu kuni eng aziz dugonamiz Feruzadan ajraldik. Lekin hanuzgacha biz uning bu dunyoda yo'qligiga sira ishona olmayapmiz. Feruza juda ajoyib qiz edi. Ismi jismiga monand feruz rangli ko'zlari, qo'ng'iroqdek kulishlari, bo'y-basti, xushmuomalasi bilan bizdan ajralib turardi. Uning orzulari juda ko'p edi. Vaqti kelib jurnalist bo'laman deb niyat qilardi. Bahor xavosini, yomg'irda sayr qilishni va... alvon rangli atirgulni sevardi. 17 yoshni qarshilashiga bor-yo'g'i uch oygina qolganda ochilib ulgurmagan g'uncha misol so'ldi...

Uning xotirasi yodimizda abadiy saqlanadi.

Bir gurux dugonalari.

Sirdaryo viloyati, SH. Rashidov tumani.

Feruza suratda ondan birinchi.

VATAN TUYG'USI

Vatan tuyg'usi muqaddas va azizdir. Men bu tuyg'uni hech qachon yashira olmayman. Chunki bu yurakdan otilib chiqqan oliy tuyg'udir. Vatan bu bizning uyimiz, ko'zimiz, hatto kerak bo'lsa yuragimiz deyishga tayyorman.

Vatan bizga nima berdi deb emas, biz Vatanimizga nima bera oldik deb o'ylasak maqsadga muvofiq bo'lardi. Biz Vatanimizga shunday narsalarni berishimiz kerakki, hatto go'zal gullar ham bundan sarhush bo'lishsin. Tuyg'ularimiz gullar kabi nozikdir. Shu sabab ham men go'zal gullarni tilga oldim.

Vatan - sen naqadar jarangli so'zsan. Sening oltinga teng tuprog'ingga bizning kindik

qonimiz to'kilgan. Tug'ilgan chaqaloq ilk bora olamni larzaga solib yig'laganda Vatan isini, iforini sezgandir. O'sha damlarda uning joniga, vujudiga Vatanga muhabbat hissi singib ketsa ajab emas. Inson dunyodan o'tgandan so'ng ham tuproqqa qo'yiladi. Ona yer yana insonni o'z bag'riga oladi.

Biz Vatanimizga qo'limizdan kelganicha o'z xizmatimizni qilishimiz kerak. A'lo o'qib Vatanimiz sharafini yuksaklarga olib chiqish bizning burchimizdir.

Nilufar

SHODJONOVA,

Poytaxtimizdagi

Olim Xo'jayev nomli

21 - o'rta maktabning

9 - «I» sinf o'quvchisi.

Burch

BOZORDAGI BOLALAR

Bozorlarda somsa, choy, sigaret, pista, saqich sotib yurgan yoxud transport vositalarida nazoratchilik qilib yurgan bolalar haqida juda ko'p o'ylayman. Uzzu -kun bozorda, yo'lda bo'lishadi. Qiziq, ularning maktabdagi o'qishlari nima bo'layotgan ekan? Oilasiga yordam bergani yaxshiku-ya, lekin ularning kelajagi nima bo'ladi? Umrining oxirigacha bozorda narsa sotish bilan o'tib ketolmaydi-ku. Menimcha savdo-sotiq qilish uchun ham yetarli darajada bilimga ega bo'lish kerak.

Men bu gaplarim bilan kattalarni ayblamoqchi emasman. Faqat ulardan, bolalarga befarq bo'lmasliklarini iltimos qilardim xolos. Bugunnigina emas, kelajakni ham o'ylab ish qilsalar va bu bolalar ulg'ayib kim bo'ladi, degan savolni o'zlariga berib ko'rsalar menimcha yaxshi bo'lardi.

*Qizlarxon YO'LDOSHEVA,
Toshkent shahar, Mirobod
tumanidagi 214 - maktabning
5 - «V» sinf o'quvchisi.*

«OQSHOM» MUHIMMI, IMTIHON?

So'nggi qo'ng'iroqdan o'tib olgan bitiruvchilar uchun eng qizg'in bir davr boshlandi. Davlat imtihonlari bilan bir qatorda «Oqshom» masalasi ham turibdi. Meni bir narsa ajablantiradi. Bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan suhbatlashsangiz, aksariyati imtihonni emas, ko'proq bitiruv kechasini o'ylayotganining guvohi bo'lasiz. To'g'ri, bu takrorlanmas va umrimizda bir marotaba bo'ladigan eng go'zal damlarni chiroyli, betakror o'tkazishni hamma ham istaydi. Lekin undan avval bo'lib o'tadigan davlat imtihonlari-chi? Bitiruvchilar orasida qo'liga kitob olib imtihonga hozirlik ko'rayotganlar emas, bozor-o'charlarda «Oqshom» uchun kiyim qidirib yoki bo'lmasa, o'tirish qilish tashvishida yurganlari ko'proq.

Yaqinda o'zaro gaplashib ketayotgan ikki qizning suhbat qulog'imga chalinib qoldi: Imtihonga «shpargalka»ni qanday qilib olib kirish mavzusida bahslashishardi. Biri yondaftarga yozib olsa yaxshi bo'ladi, desa, ikkinchisi shundoq ham olib kirs bo'ladi, o'qituvchilar indamaydi deb, o'z so'zini ma'qullardi.

Shunda o'ylanib qoldim. Oddiy va darsda o'tilgan mavzularni takrorlab berish shunchalik qiyinmikan? Hozirdanki shunday fikrlasalar, oliygohlarga hujjat topshirsalar nima qilishadi?..

Aziz bitiruvchi akajonu opajonlar! Bizga faqat bilimingiz bilan o'rnak ko'rsatishingizni istardik. O'ylashimcha, birinchi galda davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirish lozim. Shundagina «Oqshom» ko'ngilga sig'adi, shundaymasmi?

*Gavhar IRISNAZAROVA,
Toshkent shahridagi 116 - maktabning
7 - «B» sinf o'quvchisi.*

TERRORIZM - XXI ASR VABOSI

Terrorizm butun insoniyatni halokat yoqasiga olib boruvchi yovuz kuchlardan biridir. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, ham jismonan, ham ma'nan sog'lom qilib o'stirish biz o'qituvchilarning oldida turgan eng ma'suliyatli vazifalardan biridir. Ona Vatanga sadoqatli, har bir siqim tuprog'ini ko'z qorachig'idek asraydigan mard va jasur farzandlarni tarbiyalash borasida ta'lim maskanlarida samarali ishlar olib borilmoqda. Yaqinda maktabimizda «Terrorizm - Vatan ravnaqiga tahdiddir» mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Unda shahar maktablaridan ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, mahalla posbonlari, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, shahar xalq ta'limidan mehmonlar ishtirok etishdi. Seminar bahs-munozara tarzida o'tdi. Bahslarda maktab o'quvchilari faol ishtirok etishdi. Ijodkor yoshlar o'z jaji yuraklaridan satrlarga ko'chgan fikrlari, xitoblari bilan tadbirga o'zgacha fayz kiritishdi. Ayniqsa, 6 - «A» sinf o'quvchilari Nilufar Nizomova va Kamola Xalilovalarning yozgan insholarida yurt ishqi, Vatan mehri butun tarovati bilan namoyon bo'lganligining guvohi bo'ldik. Kasallikni davolagandan ko'ra, uning oldini olgan afzal, deganlaridek, bunday tadbirlarni tez-tez o'tkazib turilishi yoshlarimiz ongini, fikrlarini turli ta'sirlardan himoyalaydi, deb o'ylayman.

*G. HOTAMOVA,
Navoiy shahridagi 15 - maktabning
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

SO'NGGI QO'NG'IROQ

Hammamiz intiq kutgan «So'nggi qo'ng'iroq» sadolari ham yangradi. Bu kun barcha bitiruvchilar uchun ham quvonchli, ham qayg'uli bo'ldi. Chunki shu kundan boshlab ular uchun hayot sinovlari boshlanadi. Bugun ular jonajon maktablarini, qadrdon sinfdoshlarini, mehribon ustozlarini, qolaversa, maktabda paydo bo'lgan ilk muhabbatlarini tark etdilar. «Eh, vaqt qanchalik tez o'tib ketibdi, qani endi yana bir yil shu yerda qolishning iloji bo'lsa», degan xayol barcha bitiruvchi yigit-qizlarning dilidagi gaplar edi...

Men ham maktabni tamomlaganimga bir yil bo'ldi. Shu bir yil ichida sinfdoshlaru ustozlarimni qanchalik sog'inganim o'zinga ayon. Maktab qadri faqat uni tark etgandagina bilinar ekan. Bu damlarga esa hech narsa yetmaydi. Maktabni, sinfdoshlarni, ustozlarni sog'inganimizda u yerga talpinamiz. Menimcha maktabga mehribon ustozlar qoshiga tez-tez borib tursak, o'rtadagi do'stlik, mehr-oqibat va ahillik abadiy saqlanib qoladi.

*Nargiza BILOLOVA,
O'z.MU jurnalistika fakulteti,
1 - kurs talabasi.*

Xisobot

O'quvchilarning navbatdagi o'quv yili ham o'z nihoyasiga yetdi. Yozgi ta'tilda bolalar oromgohlarga yo'l oladilar. Buvilarinikida dam oladilar. To'garaklarga qatnab, xunar o'rganishga shoshadilar.

Xullas, ta'til davomida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining ishi yanada jonlanadi.

Buxoro viloyatida jami 36 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi. Ularda 930 ta to'garaklar mavjud. Unda 31272 nafar o'quvchilar kasb-hunar sirlarini o'rganadilar.

Viloyat hokimining qarori bilan har oyning uchinchi haftasida «Maktablar kuni» tadbiri o'tkaziladi. Bu tadbirda viloyatimizdagi barcha tashkilot rahbarlari ishtirok etib, maktab hayoti bilan tanishadilar. Darslarda, to'garak ishlarida ishtirok etadilar. Ota-onalar bilan suhbatlashadilar. Muammolarni hal etishga amaliy yordamlashadilar. Barcha tadbirlarga xomiylik qiladilar.

Jumladan, viloyatimizdagi «Tasviriy

oyina» uyushmasi bilan hamkorlikda «O'zbekiston Vatanim manim» eng yaxshi rasmlar tanlovi va tasviriy san'at yo'nalishidagi

maqsadida maktablar, mahallalar va ijodiy ustaxonalar qoshida «Usto shogird» to'garaklari tashkil etilgan.

BO'SH VAQT MAZMUNLI O'TSIN,

- deydi Buxoro viloyati, Ma'naviyat qo'shimcha ta'lim markazi direktori Mavjuda opa JAMOLOVA.

ko'rgazmalar o'tkazilib kelinadi. G'oliblar ushbu uyushma orqali rag'batlantiriladilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bolalar jamg'armasi viloyat bo'limi bolalar bayramlari, anjumanlarining doimiy xomiysidir.

Har yili 15 nafar iqtidorli bolalar jamg'arma tomonidan stipendiya oladilar. Ular «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, «Bolalar» jamg'armasi, «Nuroniy», «Navro'z» jamg'armalari tomonidan ham rag'batlantiriladi.

Bugungi kunda iqtidorli bolalar bilan ishlash, ularning ijodkorligini rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni kengroq tashviqot qilish

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Ziyo», «Bahs», «Zakovat», «Fidoyilar» klublarining o'ziga xos tomoni shundaki,



ular qanday yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar, o'quvchilar tarix saboqlari, musiqa, tasviriy san'at, xorijiy tillar va muomala madaniyati kabi bilimlarni egallashga muvaffaq bo'ladilar.

Olti yildan beri «Tinchlik korpusi» bilan hamkorlikda «Ingliz tilini o'rgatish», «Nutq o'stirish» klublari ham ishlab turibdi. Ularning ishtirokchilari soni yildan

yilga ortib boryapti.

Bundan tashqari to'garak a'zolari orasida giyohvandlik illatlari, uning asoratlarini ochib beruvchi tadbirlar o'tkazilyapti. «Giyohvandlik - umr zavoli», «Tilsiz qotil», «Ogoh bo'ling» mavzularida shu sohaning mutaxassislari, osoyishtalik posbonlari bilan uchrashuvlar uyushtirilyapti.

Ayni ta'til kunlarida bolalarning bo'sh vaqtlari ko'proq bo'ladi. Ularning o'ta qiziquvchanliklari ba'zan ko'ngilsiz voqealarga olib keladi.

Yuqoridagi tadbirlar noxush ishlarning oldini olishda bir oz bo'lsa-da xizmat qilsa, ajabmas.

Bizning maqsadimiz bolalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, hunar va kasb malakalarini egallashlarida ko'maklashishdir.

F. ODILOVA
yozib oldi.



Tong sahardagi telefon qo'ng'irog'idan uyg'onib ketdim. «Kim bo'ldi ekan?», degan xavotirda telefon go'shagini ko'tardim:

-Tohir aka, eshitdingizmi, G'ayrat aka olamdan o'tibdilar.

-Qaysi G'ayrat aka?

-O'zimizning G'ayrat aka Shokirov. «Dodamiz» vafot etibdilar.

-Nima?.. Yo'g'-ye, kecha yaxshi yuruvdilar-ku. O'tgan yili 60 yoshlarini nishonlovdik-a. Qayerdan eshitdinglar?

-Jiyanlari telefon qildi, - dedi yig'i aralash qaltiroq ovoz bilan «Bolalar» studiyasining bosh muharriri o'rinbosari Omilaxon Ibrohimova...

Bu sovuq xabar barchamizni karaxt qilib qo'ydi. Axir kechagina ikkinchi qavatga ko'chib o'tganimizda hammamiz G'ayratjonni, «Bizni xonada o'tira qoling», deb talashgan edik. Oxiri u, «Keling shu Mirkomil, Mirasqar shogirdlarim bilan bo'la qolay» -deb bosh rejissyor xonasida qolishga rozi bo'lgandi.

-Ha, G'ayratjon telestudiyada barchaning mehrini qozongandi. Uning bilmagan sohasi yo'q edi. Chunki u rejissyor yordamchiligidan, bosh rejissyor lavozimigacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'tagan oliy toifali rejissyor edi. U televideniya texnikasidagi oddiy montajdan tortib, murakkab montaj, kliplarni tayyorlashgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'zi mustaqil bajara olardi. Bu borada hatto texnik xodimlarga, muhandislarga ham yordami tegardi. Ko'rsatuv rejalashtirilganda G'ayratjonning muallif va muharrirlar orasida talash bo'lishi ham shundan edi...

Bir kuni G'ayratjon xonaga xursand bo'lib kirib keldi:

-Tohir aka, hozir

raisimiz Abdusaid Ko'chimov bilan ancha suhbatlashdik. Baraka topsin, ajoyib inson-da. O'zi anchadan beri aytmoqchi bo'lib yurgan dardimni ochib:

-Abdusaid aka, mana televideniya ishlaganimga ham 40 yildan oshdi. Bolalarni jon-dilimdan yaxshi ko'rganim uchun butun

HAMMAMIZNING «DODAMIZ» EDI

umrimni ularga bahshida qildim.

Bosh muharririmiz H o s h i m j o n Mirzaahmedovga, «Bo'ldi endi, menga javob bersanglar ham bo'ladi, navbatni yoshlarga beraylik. Sog'ligim ham uncha yaxshi emas. Uch marta yurak xurujiga duch kelganligim tufayli shifokorlar meni qo'yarda-qo'ymay II-guruh nogironligiga chiqarishdi. Shifokorlar endi dam oling, deyishyapti deb murojaat etgandim. Ular ruhsat bermayaptilar, desam raisimiz:

-G'ayrat aka, avvalambor sizga katta rahmat! Siz televideniya uzoq yillar ishlab juda katta tajriba orttiringansiz. Sizning hayotingiz yoshlar uchun katta maktab. Ko'rsatuv tayyorlamasangiz ham ularga bosh-qosh bo'lib foydali maslahatingizni ayamay yursangiz bo'ldi. Sizdan boshqa narsani talab qilmaymiz. Iltimos, siz bizga juda keraksiz,-dedi.

Raisimizning bu iltimosidan ko'nglim tog'day ko'tarilib ketdi. Esingizdami, bundan 2 yil ilgari rahbarlardan biri nafaqaga chiqqanlarni quvg'in qilgandi. Shunda Abdusaid Ko'chimov buni bilib qolib, ularni qayta ishga tiklab, juda savob ish qilgan edilar. Qariyalarning ko'ngli nozik bo'ladi. Ular yosh boladek bo'lib

qolarkanlar. Men h a y o t i m n i televideniya tasavvur qilolmayman. Oilamning rizq-nasibasini shu yerdan topdim. Yaxshi to'ylar qildim. Do'st-birodarlar orttirdim. Baxtimdan o'rgilay, shu kasbni tanlaganimdan bir umr xursandman. Ajoyib



-Meni to'g'ri tushungin, tug'ilganlik haqida guvohnomang bo'lmasa baribir kiritolmayman,- deyishardi unga.

Bu manzarani kuzatib turgan G'ayratjon:

-Bola beg'uborligining o'zi hujjat emasmi? Men ruhsat beraman! Kiraver bolam! - debdi.

-O'zingiz kim bo'lasiz?- deb so'rashganda:

-Men shu yerning generali bo'laman, - degan ekan.

-Kechirasiz, o'rtoq general, - deya unga yo'l bo'shatishgan ekan. Shu kundan e'tiboran G'ayratjon «General» deb, telestudiyaga keladigan bolalar esa «General bolalari» deb nom olishdi...

Biz barchamiz uni «Doda» deb suyardik. Oilada ham sevimli farzandlari va nabiralarga mehribon ota, suyuqli bobo edi. Turmush o'rtog'i Inoyatxon fidoyi o'qituvchi. Qizi Shohista ham jurnalist. Fransiya bolalari hayotiga oid ajoyib videolavhalar jo'natib turadi.

G'ayratjonda namuna oladigan ajoyib xislatlar ko'p edi. U bor umrini beg'ubor bolalikka baxshida etgan san'atkor edi.

Undan ajoyib farzandlar, biri-biridan shirin nabiralar qoldi, bolalarga olam-olam quvonch ulashadigan xilm-xil ko'rsatuvlar qoldi. Bu ko'rsatuvlarni G'ayratjondek maromiga yetkazib, davom ettira oladigan iqtidorli shogirdlar qoldi.

Kamtarin inson, dilkash do'stimiz G'ayrat Shokirovning porloq xotirasi barchamizning qalbimizda uzoq saqlanib qoladi.

Oxiratingiz obod bo'lsin, G'ayratjon!

Tohir MULLABOYEV.



ustozlar, iqtidorli shogirdlar orttirdim...

G'ayratjon hamisha o'z kasbidan mamnun yurardi. U tayyorlagan «Bolalikning moviy osmoni», «Ulg'ayish pog'onasi», «Sehri harflar orolchasi», «Ko'zgu», «Sirk, sirk, sirk», «Bolaligim - poshsholigim», «San'at g'unchalari», «Qo'shig'im jon qo'shig'im» kabi ko'plab ko'rsatuvlar muharririyatga hamisha olqish olib kelardi.

Kichkintoylar uning jon-u dili edi. Bolalarni urushgan, urganlarni ko'rsa, jon-poni chiqib ketardi.

Telestudiyaga qatnaydigan ko'pchilik bolalar G'ayratjonni «General bobo» deyishardi. Buning tarixi qiziq bo'lgan.

...Bundan bir necha yil ilgari telestudiya ko'rsatuvlariga qatnaydigan bolalar telestudiyaga kirish qoidasining II maddasiga binoan ro'yxat bilan ma'mur orqali kiritilardi. Bir kuni 9-10 yoshli bolakay ichkariga kirolmay, ko'zlari javdirab turardi.

**ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR****Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi**

Insoniyat buyuk kishilarsiz yashay olmaydi: Mikelanjelo vafot etgan haftada Galileo Galiley tug'ildi.

Uning hayotida baxt va baxtsizlik notekis taqsimlangan: umr shomi momaqaldiroqli kelgan bo'lsa, umr tongida, yoshlik davrida serfarzand, aslzoda, ammo qashshoq Venchenso Galileyning to'ng'ich o'g'li quvnoq va omadli edi. U o'zini bir umr maftun etgan Florensiya shahrida ta'lim oldi. Keyinroq Piza universitetida o'qiganida esa quruq va jonsiz leksiylardan darhol bezib qoldi va balki shuning evazigadir adabiyot, tasviriy san'at hamda o'zi sevgan musiqaga berilib ketdi.

Otasi o'g'li hakim bo'lishini istab, uni matematika va fizikadan iloji boricha uzoqlashtirishga urinardi. Ana shu bois ham Arximed bilan Yevklidlarning asarlari haqida Galiley 18 yoshga borgandagina xabar topdi va bu kitoblar uni o'ziga ohanrabodek torta boshladi. Bo'lg'usi olimning falsafiy qarashlari bu paytda hali shakllanmagan, bilimlari yuzaki edi. Polyak astronomi Kopernik taklif etgan olamning yangicha tizimi to'g'risida u eshitgandi, albatta. Biroq... «Imonim komilki, -deb yozadi Galiley, - bu yangicha tizim g'irt ahmoqlikdan boshqa narsa emas. Shu to'g'ridagi ma'ruzalarni tinglagan ko'pchilikdan so'rab-surishtirib bildim-ki, ular doimiy kulgi va hazil manbai ekan». Ha, o'sha kezlari Kopernik ta'limoti bo'yicha ma'ruza o'qilardi. Biroq yillar o'tgach, buyuk polyak olimining abadiy kashfiyoti oldida bir zamonlari uni mas'haralab kulgan odamlarning aft-basharasi alamafratdan burishib ketdi.

...Talabalar va tomoshatalab odamlar mashhur Piza minorasini qurshab olishgan: bugun yosh professor minora tepasidan har xil buyumlar tashlab, vazni turli xil jismlar bir xil balandlikdan bir xil vaqtda tushishini isbotlab bermoqchi.

...Piza ibodatxonasida xor diniy qo'shiqlar aytayotganida minglab shamlarning sarg'ish tillari titrog'idan katta qandil tebrana boshlaydi. Shunda Galiley o'ylanib qoladi: tebranish vaqtga bog'liq emasmikan? Ana shu tariqa olim tebranishlar izoxronizmi (tebranishlar doimiyligi ularning amplitudasiga bog'liq emasligi) prinsipini ibodatxonada kashf etadi.

Yosh professor tez orada dong taratadi

va bu ko'pchilikka yoqmaydi. Hamkasblari hasad qilib, uning payini qirqa boshlaydi. Bular ham yetmaganday

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

Galiley o'zini ajoyib muhandis deb biluvchi, yosh bo'lsa ham izzat-nafsi kuchli, qo'li har yerga yetadigan Jovanni Medichining mexanik cho'michini tanqid qilib qolsa bo'ladimi?

Galiley murosai madorani, shart-sharoitga moslashishni bilmasdi. Shu bois ham ehtiyotkorlik, yon bosish nimaligini o'ylamay, chirkin jamiyatning chirkin tartib-qoidalarini takror-takror buzaverardi. Olim Paduya shahriga borgan paytda ritorika (notiqlik ilmi) professorlariga 1700 floringacha maosh to'lashardi, u - matematika professori esa atigi 180 floringa rozi bo'ladi. 1606 yili iyezuitlar Venetsiya respublikasi hududidan quvilib turgan bir paytda Galiley bu haqdagi dekretni qo'llab-quvvatlashga namuncha shoshilmasa-ya? Iyezuitlar bunaqa narsani unutadigan odamlar emas-ku, axir!.. Qolaversa, Galiley ixtiro qilgan teleskopni hali-hanuz qudratli bo'lgan kardinal Reshelening o'zi so'rashini kutib o'tirish shartmidi? Yosh bola emas, 42 ga chiqqan bo'lsa, har qalay... Bu g'aroyib asbob respublikaga sovg'a qilinsa, senat faxrlanishi to'g'risida Venetsiya doji Leonardo Donatining o'zi shama qilib qo'yishi shart emasdi mutlaqo. Xullas, Galiley o'zi uchun bunaqa chohlarni o'z qo'li bilan ko'p qazigan. Xayriyatki, atrofida aqlli, hushyor odamlar ham bor ekan, olinga Mushtariy sayyorasining u kashf etgan to'rtta yo'ldoshini «Mediche yulduzlari» deb atashni maslahat berishgan... Aks holda, bu narsa zamonaga yoqmasligi, ancha barvaqtroq uning boshiga yetishi tayin edi. Galiley Paduyada 18 yil yashadi, shu yerda mashhur olim bo'lib tanildi. Uning ma'ruzalarini eshitgani ikki minglab odam yig'ilardi. Shu yerda olim ajoyib astronomik kashfiyotlar qildi, darsliklar va ilmiy risolalar yozdi. G'aroyib mashinalar ixtiro qildi. Yangi xil

fortifikatsiya tizimlarini o'ylab topdi. Havo termometrini, proporsional sirkulni yaratdi.

Biroq bu dunyoda ko'ngil ishi qiyin ekan. Galiley Paduyani yoqtirmadi. Shuncha yillar mobaynida yer yuzidagi ajoyib shahar - jondan aziz Florensiyaga intilib yashadi... Baribir chidolmadi, jo'nab ketdi. Venetsiyaliklar uni noshukur deb bilishgani yetmagandek, florensiyaliklar kimsan naq Aristotelning o'zidan xato izlagan va hatto topgan odamga shubha bilan qarashardi. To'g'ri, janobi oliylari uni o'z o'g'illarining murabbiysi qilib tayinladi va kattagina maosh belgiladi. Bunday

ASRLARGA

qaraganda saroyda yashab turgan odamga pul ham kerakmasdek tuyuladi, lekin Galileyga pul kerak bo'ldi: u ikkita singlisiga sep yig'ib, turmushga uzatdi. Olim qarddon shahri bilan nihoyat diydor ko'rishganidan baxtli edi. Balki shu sababli ham boshi uzra qora bulutlar to'planayotganini darhol payqab ololmagandir.

1616 yili 5 mart kuni Rimning Muqaddas senzura qo'mitasi Kopernik bilan Roskarining kitoblarini «to tuzatilmaguniga qadar» ta'qiqlab qo'ydi. Bu qatag'on marhum Kopernikdan o'ch olishgina emas, balki hali hayot bo'lgan Galileyga tahdid ekanligini olim nahotki tushunib yetmagan bo'lsa? Zamondoshlarining guvohligiga ko'ra, «Yangiliklari va nozik jihatlariga» toqat qila olmagani uchun ham adabiyot va san'atdan qo'rqadigan Papa Pavelni bu fikrdan qaytara olishiga nahotki ishona olgan bo'lsa? Bunisi ham mayli-ya, u yangi Papa - Urban VIII Galileyning yaqin suhbatdoshi, deyarli do'sti, sobiq kardinal Maffeo Barberini Kopernik ta'limotiga qo'yilgan qatag'onni bekor qilishiga bolalarcha soddalik bilan umid bog'lardi.

Xullas, «Olamning ikki asosiy tizimi to'g'risida suhbat» nomli asarini Rimga olib borar ekan, Galileyning umid-orzulari, rejaları olamjahon edi. Vaholanki, bu qo'lyozmada Ptolomey «Batlimus»ning geotsentrik ta'limoti butkul barbod etilgani va Kopernikning geliotsentrik ta'limoti g'alaba qozongani yaqqol ko'rinib turardi. Muqaddas saroyning bosh sarkori Rikkardi qo'lyozmani

bosishga ruxsat etadi. Ammo keyin nimadandir xavfsirab, ruxsatini qaytib oladi va Florensiyadagi boshqa bir senzorga murojaat qilishni maslahat beradi. Ana shu tariqa Galiley 1632 yili, 68 yoshida o'z hayotining asosiy asarini o'sha shaharda nashr ettiradi.

Vatikan esa bu kitobni o'qib g'azabga keladi. Papaga asarda fikri qoloq bir kimsa timsolida uning o'zi tasvirlangani shipshib qo'yilganida esa u kitobni oqlovchi biror-bir gapni eshitgisi ham kelmay qoladi.

-Sizning Galileyning yozish mutlaqo mumkin bo'lmagan narsalar to'g'risida yozishga jur'at etdi! Bizning davrimizda eng muhim, eng nozik, xavfli masalalar yuzasidan o'z bilganicha fikr yuritibdi! - deb qichqiradi, Urban VIII olimni himoya qilishga uringan Toskaniya vakiliga.

qilishni mutlaqo istamayman, ammo bu o'rinda gap ilohiy e'tiqodga borib taqalayapti...»

Galileyning ustida sud ikki oydan ziyodroq davom etdi. Birin-ketin o'tgan to'rtta so'roq qariyaning irodasini buka boshladi. «Buyuk odamning xo'rlanishi

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir. Sharq naqli

teran va to'liq edi», -deb yozadi Galileyning fransuz biograflaridan biri. -Bunday tahqirlashda u olimning eng yuksak e'tiqodlaridan voz kechishi darajasigacha, azob-uqubatlaru gulxan dahshatidan bo'yni egilgan odamning qiynoqlari darajasiga olib borilgan edi...»

hech qachon kechirmas edi. Undan aynan tavba-tazarruni, bo'yin egishni xohlashgan. Uning irodasini egish emas, sindirish talab qilinardi...

Nohaq taxqirlangan buyuk daho haqidagi hikoyamizni yakunlash uchun biz o'z davrimizga qaytishimizga to'g'ri keladi. 1979 yil 10 noyabr shanba kuni Vatikan Fanlar akademiyasida Albert Enshteynning 100 yilligiga bag'ishlangan tantana marosimi o'tkazilmoqda edi. Akademiya a'zolari oldida Papa Ioann Pavel II so'zga chiqdi.

-Galiley va Enshteynlarning har biri butun boshli davr edi, -dedi u dabdurustdan, yig'ilganlar sergak tortishdi: Bu gapi bilan u nima demoqchi? Bu marosimga Galileyning nima aloqasi bor? Papa esa o'z fikrini rivojlantirishda davom etar ekan, florensiyalik buyuk olim «ko'p azob-uqubat chekkani va - buni yashira olmaymiz - bunga cherkov

organlari xizmatlarining aybi» sabab bo'lganini tan oldi. Papaning shundan keyingi gapi yanada oshib tushdi: -Men istardim-ki, ilohiyotshunoslar, olimlar va tarixchilar hamkorlik g'oyalariga sidqidildan amal qilgan holda haqiqiy aybdorlarning aybini ochiq-oydin tan olib, Galileyning ishini imkon qadar teranroq o'rganib chiqsalar. Menimcha, bu masalalar hali-hanuz ko'pchilikning ongida dinga nisbatan ishonchsizlik uyg'otib ilm-fan bilan e'tiqod o'rtasida sermahsul bitim tuzishga halaqit berib kelyapti. Ular ana shu ishonchsizlikni yo'qotishga ko'maklashsalar...

Galileo Galiley bu xil «sermahsul bitim»ga hech qachon rozi bo'lolmasligini Ioann Pavel II nahotki tushunib yeta olmagan bo'lsa? Xo'sh, bu nutqdan muddao nima o'zi? Cherkov Galileyni oqlamoqchimi? U holda oz emas, ko'p emas, naq 346 yilga kechikibdi. O'z e'tiqodidan qaytishi olimning ruhini o'ldirdi. Tanasining o'limi esa yana 9 yilga cho'zildi. Ko'zi ko'rmay qolgan va bemor Galiley amalda hamon «inkvizitsiya mahbusi edi...» U Florensiya yaqinida 79 yoshida dunyodan ko'z yumdi.

Biroq insoniyat buyuk kishilarsiz yashay olmaydi: Galileo Galiley vafot etgan o'sha yil, o'sha oydayoq Isaak Nyuton dunyoga keldi.


KECHIKKAN UZR

Senzorlarning ruxsati haqidagi gaplarni esa umuman eshitishni istamaydi. - Muqaddas inkvizitsiya hech qachon hech kimga avvaldan maslahat bermaydi. Bu uning sha'niga munosib emas...

Suhbatdan keyin ikki kun o'tgach, Florensiya inkvizitsiyasi inkvizitsion sudning maxsus farmoniga asosan Galileyga Rimga yetib borishni buyuradi. Mazkur buyruqni bekor qilishga bo'lgan har qanday urinish behuda ketadi. Nima, Galiley keksami? Kuch-quvvatdan qolganmi? O'zini yomon his etayaptimi? Betoblighi haqida hatto hakimlarning ma'lumotnomasi ham bormi?

-U holda, mayli, aravada, asta-sekin, qiynalmay kelaversin, - deya unga «g'amxo'rlik» ko'rsatadi Papa.

1633 yil fevralida Galiley Rimga yetib keladi. Olimdan «mehr-muruvvat»ini darig' tutmagan Papa u inkvizitsiya sudining «hatto hukmdorlar qochib qutula olmaydigan» turmasida emas, balki Toskaniya vakilining uyida yashashiga ruxsat etadi. Galileyga «achinib, yurak-bag'ri ezilib ketgan» Papaning chehrasi mahzun qiyofaga kiradi: «Yangi ta'limotlar va muqaddas kitoblarga daxldor narsalar to'g'risida fikr yurita boshlagani uchun uni Xudoning o'zi kechirsin. Zotan, hamma vaqt umume'tirof etilgan ta'limotga amal qilgan ma'qulroq... Unga yomonlik



Albert Enshteyn Galiley haqida shunday deb yozgan: «Ko'z o'ngimizda kuchli iroda, aql-idrok va jasoratga ega, oqilona mushohadaning vakili sifatida xalqning johilligiga hamda cherkov libosidagi va universitet mantiyasidagi murabbiylarning xo'jako'rsin faoliyatiga tayangan holda o'z ahvolini mustahkamlash va himoyalashga uringan kimsalarga qarshi turishga hozir bo'lgan inson gavdalanadi...»

1633 yil 22 iyun kuni muqaddas Miner ibodatxonasi cherkovida sudning barcha prelatlari va kardinallari huzurida unga bo'ysungan holda Galileo Galiley tiz cho'kib, o'z ta'limotidan voz kechgani haqida unga yozib berilgan tavbani o'qib berdi. «Yer shari baribir aylanadi!» deb qichqirgani esa shunchaki bir chiroyli afsona xolos, shoirona ibora. Qani endi amalda shunday bo'lganda!.. Biroq inkvizitsiya xo'jako'rsinga tavba qilishni

Bugunning bolasi

Barcha sinfdoshlari kabi Begzod ham o'n ikki yoshga to'lishini orziqib kutgandi. Chunki sinf rahbari Nigora opa Bozorova, «O'n ikki yoshingizda sizlarning muchal to'yingizni bayramdek kutib olamiz», degandilar-da.

Kutilmaganda aytilgan bu gap bayramlarni sevuvchi bolajonlarni yanada quvontirdi.

O'sha kundan boshlab, Begzod ham ko'plab she'r yod oldi. Hikmatli so'zlardan, maqollardan, Hadislardan o'qidi. Yoshiga yosh qo'shib, o'qishga, o'rganishga yanada mehr bog'layotganidan xursand bo'ldi.

Begzod To'laganov Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 16-maktabning 5-«V» sinfini a'lo baholar bilan yakunladi. Kunalik uy vazifalarini vaqtida

bajargani qo'shimcha darslariga adabiyotlardan ko'maklashishadi. O'z

QUVNOQLAR DAVRASI



foydalangan bo'lsan fanlarni o'zlashtirishga qiynalmadida...

Begzod oilada uchinchi farzand. Uning ikki akasi-Sharofiddin, Shahobiddinlar ham bilimdon. Begzodning

navbatida Begzod ham ukasi - Shohruxning darslariga yordamlashadi.

Ha-ya, muchal to'yi haqida. O'n ikki yoshlilar o'z bayramlarini quvnoqlik bilan nishonladilar. She'rlar

qo'shiqlarga, qo'shiqlar raqslarga ulandi. Nigora opa bolajonlarni viloyatdagi ziyoratgohlarga olib bordi, ularning tarixi haqida qiziqarli hikoyalar so'zladilar.

Fursatdan foydalanib, Begzoddan ta'tilda nima qilishini so'radim. U esa, «O'z uyim yaxshi», dedi. «Axir men onamning uy yumushlarida eng yaqin yordamchilariman-ku», deya qo'shib ham qo'ydi...

Baxtingga ota-onang, yaqinlaring omon bo'lsin, kutayotgan yozgi ta'tiling quvnoqlik bilan o'tsin, dedim.

Chindan ham bolalar qayerda baxtiyor bo'lsalar, o'sha yerda ta'tillari maroqli o'tadi.

Alisher

ABDULLAJONOV.

O'zbekiston milliy teatrida giyohvandlik va uning yomon illatlari to'g'risida sahna ko'rinishi bo'lib o'tdi. Sahna ko'rinishidan avval esa Shayhontohur tumanidan kelgan mehmonlar - tuman hokimi M.A.Odilov, undan so'ng prokuror O.Fuzailov, IIB bo'lim boshlig'i O.Jalilov, sud raisi A.Hikmatov, tuman arxolog i N.Dadaboyevlar so'zga

chiqib, giyohvandlikning yomon oqibatlariga to'xtaldilar. Hayotiy voqealardan hikoya qilib berdilar.

Shundan so'ng biz «Zaharli tomchi» deb nomlangan spektaklni tomosha qildik. Bu sahna ko'rinishida bir ona ikki o'g'lini katta qilish uchun chekkan qiyinchiliklari bilan

bir qatorda ularni boqaman deb tarbiyasiga butunlay befarq bo'lishi va shuning natijasida

o'g'li giyohvandlik yo'liga kirib, onasiga azob-uqubatlari olib kelgani hikoya qilinadi. Asar nihoyatda fojiali tarzda yakun topdi. O'g'il giyohvandlik natijasida nobud bo'ldi, bu ko'rgulikka chiday olmagan ona esa

telba bo'lib qoldi...

Bu tomoshadan har bir bola o'ziga to'g'ri xulosa chiqardi, deb o'ylayman. Bu kabi tadbirlarning o'tkazilishidan maqsad yoshlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, jinoyatchilikning oldini olish, voyaga yetmaganlarni tarbiyalashdir.

Nazokat

BOBOQULOVA,
Toshkent shahar
qo'shimcha ta'lim
Majmuasi a'zosi.

"ZAHARLI TOMCHI" NIMA?



Men'skul

Suhbatdoshimiz Sanjar Akromov poytaxtimizdagi 59 - maktabning 3 - «D» sinfida o'qiydi. Baholari «4» va «5». Sinfboshi. Demak, ustoz Klara opa Muzaffarovaning «o'ng qo'li». Oilada uch o'g'ilning kenjasi. Shundanmi, dastlab bizga biroz erkaroqdek tuyulgandi. Lekin suhbatimiz davomida fikrimizdan qaytdik.

- Sanjarbek, ismingizning ma'nosini bilasizmi?

- Albatta, Sanjar degani o'tkir, keskir, bir so'zli degan ma'nolarni anglatadi. Shuning uchun ham ismimga munosib bo'lishga intilaman.

- Oilaning kenjasi ekansiz. Akalaringiz xafa qilishmaydimi?

- Aksincha, narsalarini tortib olib, men ko'pincha ularni ranjitib qo'yaman. Fursatdan foydalanib, akalarimdan kechirim so'rayman.

- Ulardan sizga ish ham ortmasa kerak-a?

- Ortganda qandoq. Oyijonim - Mavjuda opaning eng yaqin yordamchilari menman-ku. Ko'pchilik bolalar supurgi ushlashga or qilishadi. Men esa uyalmayman. Axir

oilamizda qizlar yo'q. Men supurmasam, oyimning supurishlariga to'g'ri keladi. Men tomoshabin bo'lib turolmayman-ku, axir!

- Rasm chizishni yaxshi ko'raman, dedingiz. Mana bu rasmlarni sizning tengdoshlaringiz chizishgan. Ular sizga yoqdimi?

- Ha, lekin mening chizgan rasmlarim hammasidan zo'r. Chunki ular qarab chizishar ekan. Men esa hayolan, ichimdan to'qib chizaman. Katta bo'lsam, Ro'zi Choriyevdek zo'r rassom bo'lmoqchiman...

- Sizdek so'zamol, dadil bolaning do'stlari ham ko'pdir-a? Bo'sh vaqtingizda qanday


Jamshid, eh-he, ular juda ko'p. Mahallani boshimizga ko'tarib, bekinmashoq, futbol o'ynaymiz. Gohida kattalardan dakki ham eshitib turamiz. Ayniqsa, ta'til kunlarida kattalarga «maz-za» bo'ladi-da...

- Sanjarbek, kelajagingiz haqida ham o'ylaysizmi?

- Juda ko'p o'ylayman. Oyijonim meni juda yaxshi ko'radilar, mehr bilan o'stiraptilar. Ularga munosib o'g'il bo'lsam, deyman. Toki, mendek o'g'illari borligidan faxrlanib yursinlar...

Sanjarbekka samimiy

"MENIKI HAMMADAN ZO'R!"



Mana bu chizgan rasmimga ustozim «5» qo'yganlar. Siz qanday baholaysiz?

o'yinlar o'ynaysiz? Buvijoningiz ertaklar ham aytib beradilarmi?

- Ertak, iye nimalar deyapsiz? Men axir maktab o'quvchisiman-ku. Do'stlaringa kelsak, Kamol, Nodir, Mirfozil,

niyatlar bildirib, xayrlashdik. Qani endi hamma bolalar ham uningdek orzulari yo'lida intilib yashasalar.

Nargiza AKBAR qizi suhbatlashdi.

Mazkur viktorina BMTning O'zbekistondagi Axborot markazi va BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi (Jeneva) tomonidan uchinchi bor o'tkazilmoqda. U senga nafaqat Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning ixtisoslashtirilgan muassasalarining ishlari va dasturlari to'g'risida, balki, shuningdek, jahon mamlakatlari BMTning qo'llab-quvvatlashlari yordamida barqaror taraqqiyotga - ya'ni o'z ehtiyojlarini kelgusi avlodlar layoqatini xavf-xatarga qoldirmagan holda qondirishga erishish uchun davr ehtiyojlariga to'g'ri keladigan taraqqiyotga qanday intilayotganliklari haqida ko'plab yangiliklarni bilib olishga yordam beradi.

Bosh sovrin - Jeneva (Shveysariya)ga safar va BMTning Yevropadagi bosh qarorgohiga borish. G'olib chiqqanlarning va sovrindorlarning barchasi BMT Bosh kotibi Kofi Annan imzo chekkan guvohnomani oladilar.

Savollar

1. Barqaror taraqqiyotning uch asosiy tarkibiy unsurlari nimalardan iborat?

A. Iqtisodiy taraqqiyot, ijtimoiy taraqqiyot va atrof muhit muhofazasi

B. Qishloq xo'jaligi, atrof muhit muhofazasi va inson huquqlari

C. Sog'liqni saqlash sohasi, atrof muhit muhofazasi va iqtisodiy taraqqiyot

2. Atrof muhit va taraqqiyot bo'yicha Butunjahon komissiyasining raisi kim bo'lgan?

A. Gru Xarlem Bruntland

B. Moris Strong

C. Genri Kissenjer

3. BMTning Atrof muhit dasturiga qachon asos solingan?

A. 1965 yil

B. 1972 yil

C. 1992 yil

4. Atrof muhit va taraqqiyot bo'yicha Rio Deklaratsiyasida nechta tamoyil mavjud?

A. 21 ta

B. 25 ta

C. 27 ta

5. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Havoni katta masofada transchegaraviy ifloslanish to'g'risidagi konventsiyasining nechta protokoli mavjud?

A. 3 ta

B. 4 ta

C. 8 ta

6. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Atrof muhitga taaluqli masalalarda axborotlardan bahramand bo'lish, qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilikning ishtiroki va odilona sudlovga erishish to'g'risidagi konventsiyasi qayerda imzolangan edi?

A. Jenevada

(Shveysariya)

B. Orxusda

(Daniya)

C. Villarsda

(Shveysariya)

7. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining

A. Jenevada

(Shveysariya)

B. Orxusda

(Daniya)

C. Villarsda

lavoziimini yaqinda egallagan Ijroiya kotibi qaysi mamlakatdan?

A. Slovakiya

B. Polsha

C. Frantsiya

8. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga O'zbekiston qachon qo'shildi?

A. 1966 yil

B. 1989 yil

C. 1995 yil

9. BMTning Iqlim o'zgarishlari doirasidagi konventsiyasiga O'zbekiston qachon qo'shildi?

A. 1992 yil

B. 1993 yil

C. 1994 yil

10. Jenevada yigirmata xalqaro tashkilotning vakolatxonalarini joylashgan, ularning to'qqiztasi BMT tizimiga tegishli. BMTning quyida nomi keltirilgan qaysi bo'linmasining bosh qarorgohi Jenevada joylashgan?

A. BMTning Taraqqiyot dasturi


B. BMTning

Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasi C. BMTning Giyohvand moddalar ustidan nazorat qilish va jinoyatchilikning oldini olish

aylandi? A. 2002 yil 1 yanvardan B. 2000 yil 1 oktyabrdan C. 1997 yil 26



BMT



boshqarmasi maydan 11. BMTning qochoqlar ishlari bo'yicha Oliy komissar boshqarmasiga nechta shveysariyalik vakillar rahbarlik qilgan?

A. 0

B. 5 ta

C. 3 ta

12. "E 60" Batumi-Baku-Ashgabad-Buxoro-Toshkent temir yo'li qachon BMT iqtisodiy komissiyasi "E" temir yo'l tarmog'ining tarkibiy qismiga

13. BMT hisoblariga qaraganda, 2050 yilga borib yer yuzi aholisi qanchaga yetadi?

A. 7 milliarddan - 7,9 milliard kishigacha

B. 7,9 milliarddan - 10,9 milliard kishigacha

C. 10,9 milliarddan - 12,9 milliard kishigacha

14. BMT hisob-kitoblariga ko'ra dunyo bo'yicha qancha odam qashshoqlikda kun kechiradi?

- A. 800 million
B. 1,3 milliard
C. 2,1 milliard
15. *Dunyoda necha mamlakat o'zlarining tabiiy resurslaridan foydalangan holda aholisi uchun yetarli miqdorda oziq-ovqat yetkazib berish imkoniyatiga ega emas?*
- A. 27 ta
B. 66 ta
C. 80 ta
16. *BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining ma'lumotlari bo'yicha Yevropaning qancha aholisi (jumladan sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari) toza ichimlik suvidan bebahra qolmoqda?*
- A. Har yigirma kishidan bittasi
B. Har besh kishidan bittasi
C. Har yetti kishidan bittasi
17. *Butunjahon mehnat resurslari hajmining ko'prog'i quyidagi qit'alarining qay biriga to'g'ri keladi?*

2002 yildagi «BMT bilan o'yna» viktorinasi quyidagi tashkilotlar ko'magida o'tkazilmoqda:

Shveysariya Hukumati,
BMT Taraqqiyot Dasturi,
BMT Bolalar Jam'armasi,
«Shteynert industriz»,
«Shark-Mir».

- A. Osiyo
B. Yevropa
C. Afrika
18. *Xalqaro elektr aloqa ittifoqining ma'lumotlariga qaraganda hozirgi kunda dunyoda qancha uyali aloqa telefonlardan foydalaniladi?*

- A. 1 milliard
B. 200 million
C. 36,8 million



bo'yicha modelning prognozlariga qaraganda iqlimning ko'rsatkichni tashkil etadi:

- A. 0.8-1.3C
B. 1.4-5.8C
C. 5.9-8.7C

20. *Bir gektar o'rmon qancha odamning kislorodga bo'lgan bir yillik ehtiyojini qondiradi?*

- A. 10 odamni
B. 45 odamni
C. 65 odamni

BILAN

Viktorina ishtirokchisining kartočkasi

Ismi _____
Familiyasi _____
Manzili _____
Pochta indeksi _____
Telefon _____
Tu'g'ilgan kuni va yili _____
Maktabi _____
Sinf _____
Istirok etuvchining imzosi _____

To'g'ri javoblarni belgilagandan so'ng javobni quyidagi manzilga jo'nat:

Toshkent, 700029
Shevchenko ko'chasi, 4
BMTning O'zbekistondagi Vakolatxonasi
BMTning Axborot markazi

Qabul soatlari:

dushanbadan-jumaga qadar soat 14.00dan 17.00gacha
(chorshanba, shanba va yakshanbadan tashqari)

Telefonlar:

1394836, 1206677, 1391262.
Sening javoblaring 2002 yilning 5 iyuliga qadar jo'natilishi kerak.

O'YNA

19. *Hozirgi zamon global isishi 1990 va 2100 yillar o'rtasida iqlim o'zgarishlari q u y i d a g i*

VIKTORINA SHARTLARI

1. Viktorinaga O'zbekistonda yashaydigan 14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar taklif etiladilar.

2. BMT vakolatxonalarini va BMT loyihalari xodimlarining bolalari, ularning qarindoshlarining bolalari ham viktorinaga qatnashishlariga ruxsat etilmaydi.


3. Faqat barcha javoblar aniq-yorqin ko'rsatilgan va viktorina qatnashchisi varaqasi to'ldirilgan bukletlar hamda gazeta blankalarigina ko'rib chiqish uchun qabul etiladi. Xatlar 2002 yilning 5 iyuliga qadar jo'natilishi kerak (bu - pochta shtampeli bo'yicha aniqlanadi).

4. Viktorina qatnashchisi tomonidan buklet/blankalar ikki va undan ko'p nusxada to'ldirilsa, uning viktorinaga ishtiroki bekor qilinadi.

5. Viktorina tashkilotchilari - viktorina ishtirokchilaridan javob olganligi haqida ma'lumotlar bera olmaydi.

6. Viktorinaning barcha savollariga to'g'ri javob berib, 20 bal to'plagan ishtirokchilar viktorina yakuniga taklif etiladilar va shu yerda g'olib va sovrindorlar aniqlanadi. Yakunni 2002 yilning kuzida, Toshkent shahrida o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Bizning to'garak




ONA

Farzand uchun olamda,
Mehribon zot - onadir.
Uning qalbi doimo,
Farzandim deb yonadir.

Aql bilan ish tutsang,
Umring kechar farovon.
Hatto qaro tunlar ham,
Kundek bo'lur charog'on.

Dilrabo QILICHEVA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon shahridagi
22 - maktabning
7 - sinf o'quvchisi.



KIMNING ISMI CHIROYLI?

Qani, o'y lab ko'raylik,
Kimning ismi chiroyli?
Yoqsa bizga, hammaga,
Yaxshi sovg'a beraylik.

Mening ismim Gulbahor,
Anbar gullar hidi bor.
Shuning uchun bulbullar,
Berar menga e'tibor.

Dillarni shod etaman,
Ismim mening Dilshoda.
Niyat qilib qo'yishgan,
Umrim bo'lsin ziyoda.

Mening ismim O'g'iljon,
Buvijonim qo'yganlar.

Undan keyingi farzand,
O'g'il bo'lsin, deganlar.

Ota-onam Shuhrat deb,
Menga ism berishgan.
Yurtimiz shon-shuhratin,
Yoyib yursin, deyishgan.

To'lan bo'yli To'lagan,
Bormi uni bilmagan?
Ulashganda tabassum,
Qotib-qotib kulmagan.

O'g'iljon
ABDUVALIYEVA,
Toshkentdagi
195 - gimnaziya
maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.



O'ZBEKISTONIM

Yashna, yuksal diyorim,
Sensan baxtim, bahorim.
Madhing yozib kuylamoq,
Ko'nglimdagi shiorim.

Go'zal gulshan bog'laring,
Osmono'par tog'laring.
Dilga orom beruvchi,
Nurafshon har yoqlaring.

Sen tandagi jonimsan,
Tomirimda qonimsan.
Mehring yashar qalbimda,
G'ururimsan, shonimsan.

Aziza SHAROFOVA,
Sirg'ali tumanidagi
3 - o'rta maktabning
3 - sinf o'quvchisi.



MEHRIBONLARIM MENING

Mening Mirsulton bobom,
Doim serg'ayrat bobom.
G'amho'ru donolikda,
Umringiz ibrat bobom.

Bobomga xo'p munosib,
Buvijonim Tursunoy.
Bizga mehri bir olam,
So'zlari xikmatga boy.

Nabirangiz - Durdona,
Evara - Gavhar, Bobur.

Ellik yilki birgasiz,
Chehrangizda oftob, nur.

Bag'ringizda ulg'ayib,
Kuch-quvvatga to'lamiz.
Nomingizga munosib,
O'g'il-qizlar bo'lamiz.

Durdona XASANOVA,
Yunus-Obod tumanidagi
274 - maktabning
5 - «V» sinf o'quvchisi.

... SENDA QOLDI

Katta bo'lib qolishni,
Qilar edim men havas.
Endi esa shoshmagin,
Shoshmagin vaqt
bir nafas.

Onamizdek mehribon,
Bo'lib qolgan ustozim.
Tilagi - ezgu niyat,
Sizga qilamiz ta'zim.

Qadringizga yetmasdan,
Ranjitdik biz sizlarni.
Mehri daryo ustozlar,
Kechiringlar bizlarni.

Aka, opa, singildek,
Bo'lib qoldik sinfdosh.
Xayrlashish osonmas,
Ko'z yosh
berolmas bardosh.

Ana, so'nggi qo'ng'iroq,
Jarangladi ey, o'rtoq.
Maktab, sho'xliklar davri,
Yoddan chiqmaydi biroq.

Bag'ring keng
shunchalar ham,
Bizni sig'dira oldi.
Sendan uzoqlashsak ham,
Mehrimiz senda qoldi.

Yulduz
ABDURAHMONOVA,
Toshkent shahar,
Chilonzor tumanidagi
126 - maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.



Odatda chumolilar haqida gap ketsa, ularni halol, juda mehnatkash qilib ta'riflashadi. Lekin menimcha xuddi insonlar kabi ularning orasida ham xasis va baxillari uchrab turadi. Bugungi ertagimiz qahramoni - o'zgalarning baxtini, omadini ko'rolmaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan mittigina bir Chumoli. Nima ham bo'lib, u beozor, chiroyli

bir Kapalak bilan do'stlashib qolibdi. Ne mashaqqatlar bilan iniga don-dun tashib kelayotgan Chumoliga Kapalakning juda raxmi kelibdi. Uni nozik qo'lchalari

uzra Kapalakning kushandasi - allaqanday qush aylanib qolibdi. Qo'rqib ketgan Kapalak gul yaproqlari ostiga berkinib, ovoz chiqarmay o'tiribdi.

CHUMOLI VA KAPALAK



bilan avaylabgina ushlab, osmonga ko'taribdi. Uzoq va xatarli yo'lini yaqin qilib, inining yoniga keltirib qo'yibdi. Qaytishda esa uni gulzor uzra sayr qildiribdi. Shu tariqa Chumolining ini don-dunga to'libdi. Qishligini g'amlab, ko'ngli xotirjam bo'libdi.

Bir kuni gulzor

O'ljasini yo'qotib qo'ygan qush xafsalasi pir bo'lib, uchib keta boshladi. Shu payt Chumolining asl basharasi namoyon bo'libdi: «Hoy qush, bu yoqqa, bu yoqqa uch. Kapalak mana bu yerda» deb baqiribdi. Qushning o'tkir tumshug'i orasida qisilib qolgan Kapalak, iltijoli nigohi bilan Chumoliga nimadir demoqchi bo'libdi.

Oradan hech fursat o'tmay qattiq yomg'ir

yog'ib, Chumolining don-dunga liq to'lgan inini suv bosibdi. Chumoli o'limi oldidan Kapalakni eslabdi. «Meni kechir do'stim» degan so'zlarini o'zidan boshqa hech kim eshitmabdi.

Qissadan hissa shuki, kim birovga yomonlik qilsa, o'ziga ham yomonlik qaytadi.

SH.ODILOV,
Toshkentdagi

37 - maktabning
7 - sinf o'quvchisi.



chiqib qolibdi. Qo'zichoq oyisining «uzoqqa

ketmagin», deganiga quloq solmay, o'rmonda adashib qolgan, endi bo'lsa oyisini qidirib yig'lab yurgan ekan.

Qo'zichoqni ko'rgan bo'ri

xursand bo'lganidan u villab

u endi meniki bo'ladi! - debdi bo'rining ochko'zligi tutib va tulkinging dumini tishlab olibdi.

Tulki bilan bo'ri urishib ketishibdi. Qo'zichoq qo'rqqanidan qimirlamay qolibdi. Keyin o'ziga kelib, qochib qolibdi.

Tulki bilan bo'ri rosa tishlashib charchashibdi. Qarashsaki, qo'zichoq yo'q emish. Tushlikdan quruq qolishgani alam qilib yana bir-birini rosa tishlashibdi.


O'shandan beri tulki bilan bo'ri birga ov qilmaydigan, o'rmonda uchrashib qolishsayam teskari qarab o'tadigan bo'lishibdi.

Xurshid TOJIBOYEV,
7 yosh.



Bir o'rmonda tulki bilan bo'ri yashashar ekan. Ular xolavachcha ekanlar. Shuning uchun ham doimo birga o'ynashar, birga ovga borishar, nimaki topishsa, birga baham ko'risharkan...

Kunlardan bir kuni tulki bilan bo'rining qorni rosa ochibdi. Ular «Qayoqqa ovga borsak ekan?», deb o'ylab ketishayotsa, qarshilaridan bir qo'zichoq



yuboribdi:

-Qara-ya, ovqatimiz o'z oyog'i bilan yurib kelyapti! - debdi u.

-Yashasin, endi mazza qilamiz! - deb baqiribdi tulki va qo'zichoq tomon yugurib ketibdi.

-O'v-v, to'xta, qo'zichoqni men birinchi bo'lib ko'rdim,

TULKI BILAN BO'RNING ZARINDOSTI BO'LGANI

Tengdoshlaring ijodi

Bolalik tuyg'ulari beg'ubor, shabnam kabi tiniq. Shirin orzular, qanotli xayollar olis-olislariga yetaklaydi.

Feruza Ochildiyeva Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 14 - o'rta maktabning 6 - sinfida a'lo baholarga o'qiydi, she'riyatga mehr qo'yib, mashqlar qiladi. Ona yurtiga, qishloqdoshlariga, o'z ustozlariga qalb satrlarini bag'ishlaydi. Uning «Ona Vatanim - O'zbekiston» she'rida:

INTILGANGA TOLE YOR

Xalqimga bo'lurman sodiq bir farzand,
Ko'ksimni ko'ksingga

qilurman payvand,-

satrlari bor. Bu - yosh yurakning dil izhori, elu, xalqiga ta'zimidir.

So'qmoqlar albatta katta yo'lga olib chiqadi. «Intilganga tole yor» deydilar. Feruzaxon



qizimizning kelajakda oqila, fozila inson bo'lib yetishishiga ishonaman.

Normurod NARZULLAYEV,
O'zbekiston Xalq shoiri.

QADRLAYMIZ

Qadrlaymiz Sizni bizlar - yosh avlod,
Aziz buvijonim, buvajonlarim.
Ertaklar aytasiz boshimiz silab,
Xursand qilayin deb har bir onlarim.

Yoshingiz ulug'u ko'nglingiz daryo,
Bersangiz duolar bizlarga doim.
Siz bilan bizniki bu yorug' dunyo,
Sizlarsiz qalbdagi Quyoshim, Oyim!

YAXSHILARGA BAG'RING OCH!

Onajonim tabiat,
Jonajonim tabiat.
Yaxshilarga bag'ring och,
Yomonlardan uzoq qoch.

Har kun ekaylik daraxt,
Yurt bag'riga yarashar.
O'n yil - yuz yil o'tganda
Ular bizga qarashar.

AQL CHIROG'I

Kitob - bilim boyligi,
Aqlimizning chirog'i.
Har bilimdon o'g'il-qiz
Ona yurt ko'z qarog'i.


Kitoblar betlarida
Tuganmas ma'no bo'lur.
Kitobni sevgan farzand
Odobli, dono bo'lur.

Feruza OCHILDIIYEVA.

- ENIGA: 1. Tijorat ishlari bilan shug'ullanish. 2. Al - Xorazmiy asos solgan fan. 3. Geometrik shakl. 4. Presslangan kukunsimon modda. 5. Tabiat jilosi. 6. Talab yoki xaridor yo'qligi tufayli sotilmay turib qolgan. 7. Avtomobilsozlar shahri. 8. Dengiz yirtqichi. 9. Uqubat. 10. Son. 11. Ona qo'shig'i. 12. Quruqlikdagi eng yirik hayvon. 13. Ko'rsatish olmoshi.
- BO'YIGA: 10. Oz. 14. Okean. 15. Ona bilan bola - gul bilan ... 16. Ovoz. 17. Padar. 18. Fasl. 19. Eng issiq qit'a. 20. Qurbaqaxo'r qush. 21. Bola ... etib o'rnidan turdi. 22. Tananing bosh qismidagi a'zo. 23. Xalq og'zaki ijodi. 24. Vositali bog'lanish.

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIRI

Tuzuvchi: Iroda XAKIMOVA,
Shayxontohur tumanidagi
320 - maktabning
8 - «B» sinf o'quvchisi.



TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR: Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI: Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV, Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Po'lat MO'MIN, Mukarrama MURODOVA, Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi. Hajmi A-3, 2 bosma taboq. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi. Korxonaning manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-267 Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahifaladi. Navbatchi: Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzillimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08